

**OILA INSTITUTI INQIROZINING MA'NAVIY
TARBIYAGA SALBIY TA'SIRI**

Mirzo Ulug'bek nomidagi

*O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o'qitish metodikasi(ma'naviyat asoslari) I kurs magistranti*

Ravshanbekova Zilola

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila institutining inqirozi va uning jamiyatdagi ma'naviy tarbiyaga salbiy ta'siri tahlil etilgan. Maqolada oila – inson ma'naviyati va qadriyatlarining shakllanishida muhim ijtimoiy muhit ekani ta'kidlanadi. So'nggi yillarda ajrimlar sonining ortishi, ota-ona mas'uliyatining susayishi, farzand tarbiyasidagi bo'shliqlar kabi omillar oila institutining inqirozga yuz tutayotganidan dalolat beradi. Bu holat yosh avlodning axloqiy qarashlariga, ijtimoiy munosabatlariga va fuqarolik mas'uliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada, shuningdek, oila mustahkamligini ta'minlash, ma'naviy tarbiyani kuchaytirish va yoshlarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish yo'llari haqida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Oila, ma'naviy tarbiya, oila inqirozi, axloq, yoshlar, nikoh, migratsiya, agressiv beqarorlik.

Аннотация: В статье анализируется кризис института семьи и его негативное влияние на духовное воспитание в обществе. В статье подчеркивается, что семья является важной социальной средой в формировании духовности и ценностей человека. В последние годы такие факторы, как рост числа разводов, ослабление родительской ответственности, пробелы в воспитании детей, свидетельствуют о том, что институт семьи переживает кризис. Такая ситуация негативно влияет на моральные устои, общественные отношения и гражданскую ответственность молодого поколения. В статье также даются предложения и рекомендации о способах обеспечения прочности семьи, укрепления духовного образования и воспитания молодежи всесторонне развитыми личностями.

Ключевые слова: Семья, духовное воспитание, кризис семьи, нравственность, молодежь, брак, миграция, агрессивная нестабильность.

Abstract: This article analyzes the crisis of the family institution and its negative impact on spiritual education in society. The article emphasizes that the family is an important social environment in the formation of human spirituality and values. In recent years, factors such as the increase in the number of divorces, the weakening of parental responsibility, and gaps in child upbringing indicate that the family institution is facing a crisis. This situation negatively affects the moral views, social relations, and civic responsibility of the younger generation. The article also provides suggestions

and recommendations on ways to ensure family strength, strengthen spiritual education, and raise young people as well-rounded individuals.

Keywords Family, spiritual education, family crisis, morality, youth, marriage, migration, aggressive instability.:

Oila – jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biridir. Inson ilk bor aynan oilada axloq, ma'naviyat, hurmat, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi oliy qadriyatlarni o'rganadi. Oila qadriyatlarining mustahkamligi jamiyatning ma'naviy sog'lomligi va barqaror taraqqiyotining kafolatidir. Ammo bugungi globallashuv, axborot xuruji, iqtisodiy va sotsial muammolar fonida oila institutida inqiroz holatlari yuzaga kelmoqda. Bu esa yosh avlodning ma'naviy tarbiyasiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jamiyatning ma'naviy poydevorini tashkil etuvchi asosiy omillardan biri bu – oila hisoblanadi. Insonning dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari, qadriyatlari avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun ma'naviy tarbiya va oila masalalari har doim ijtimoiy taraqqiyot va barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida dolzarb mavzulardan biri bo'lib qoladi.

Ma'naviy tarbiya — bu insonning ichki dunyosini, axloqiy fazilatlarini, estetik qarashlarini, vatanparvarlik, insonparvarlik, sabr-toqat, halollik kabi ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllantirish jarayonidir.

Oila – ma'naviy tarbiyaning birinchi maktabidir. Oilada bola ilk bor yaxshilik va yomonlik, hurmat va ehtirom, mehr-shafqat va kechirimlilik kabi qadriyatlarni o'rganadi.

Ota-ona farzand uchun namuna, ularning muomalasi, qadriyatlarga bo'lgan munosabati bevosita bola shaxsining shakllanishiga ta'sir qiladi.

Shu bois, oila muhitining sog'lom, mehrlil, sabrli va mas'uliyatli bo'lishi – ma'naviy tarbiya samaradorligini belgilaydi.

So'nggi yillarda oila institutida kuzatilayotgan muammolar quyidagicha:

- Nikohdan ajralishlar sonining ortishi;
- Ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatidan chekinishi;
- Migratsiya sababli oilalarda bo'shliqlar paydo bo'lishi;
- Ijtimoiy tarmoqlarning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri;
- Turmush madaniyati va ma'naviy birdamlikning zaiflashuvi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayrim hududlarda har uchinchi nikoh ajrim bilan yakunlanmoqda. Bu esa oiladagi bolalarning psixologik va ma'naviy holatiga jiddiy zarar yetkazadi.

Oilada bola nafaqat jismonan, balki ma'nan ham voyaga yetadi. Agar oilaviy muhitda mehr, sabr, hurmat va birlik bo'lmasa, farzandda quyidagi salbiy holatlar yuzaga keladi:

- Jamiyatga befarqlik;
- Agressivlik va psixologik beqarorlik;
- Axloqiy me'yorlarga e'tiborsizlik;
- Yolg'on, zo'ravonlik va zo'ravonlikka moyillik;
- O'zlikni anglash muammolari.

Tarbiya uzluksiz va izchil jarayondir. Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham aynan ma'naviy barkamollik va tarbiya ma'asalriga alohida e'tibor bermoqdalar. "Yoshlarimiz qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi¹" deya ta'kidlagan edi yurtboshimiz yoshlar ma'salalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselekt yig'ilishida. Oila inqirozi bu uzviylikni buzadi, natijada yoshlar ma'naviy jihatdan tayyorlanmagan holda hayotga kirib kelishadi.

Global omillar va zamonaviy muammolar. Internet va ijtimoiy tarmoqlar: Virtual hayot real oilaviy rishtalarni zaiflashtiradi, ota-onaning nazorati kamayadi.

Iqtisodiy bosim: Moliyaviy yetishmovchilik ko'plab oilalarda nizolarga sabab bo'lmoqda.

Madaniy-informatsion xurujlar: Tashqi madaniyat ta'siri ostida yoshlar o'z milliy qadriyatlaridan yiroqlashmoqda.

Ma'naviy tarbiyani tiklash va oila institutini mustahkamlash yo'llari

- Oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilish (masalan, "Oila maktabi" loyihalari);
- Nikohga tayyorgarlik va oilaviy psixologiya bo'yicha kurslar;
- Ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligini oshirish;
- OAV va ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy namunalarni ko'rsatish;
- Davlat va jamiyat hamkorligida oilaviy muhitni qo'llab-quvvatlash siyosatini

kuchaytirish.

Ma'naviy tarbiyani oilada mustahkamlash yo'llari

- Ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligini oshirish;
- Oila ichidagi muloqotni faollashtirish;
- Bolaga kitobxonlik, milliy qadriyatlar va din asosida tarbiya berish;
- Oila an'alarini asrash va rivojlantirish;
- Ota-onani farzand uchun namunaga aylantirish.

Shuningdek, davlat va jamiyat tomonidan oilalarni ma'naviy qo'llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida sog'lom oilaviy munosabatlarni targ'ib qilish ham katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA.

Oila va ma'naviy tarbiya bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalardir. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun, avvalo, oilani mustahkamlash, uning ma'naviy

¹ 2019-yil 19 mart Sh.M.Mirziyoyevning Yoshlar masalalariga bag'ishlangan videoselekt yig'ilishida so'zlagan nutqidan.

asoslarini mustahkam yuritish zarur. Ota-ona tarbiyasi qanchalik puxta bo'lsa, jamiyat ham shunchalik sog'lom va barqaror bo'ladi. Shu sababli, oilaviy qadriyatlarga tayangan holda ma'naviy tarbiyani kuchaytirish — bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Oila institutining mustahkamligi – har qanday jamiyatning ma'naviy asosidir. Agar bu asos zaiflashsa, jamiyatda axloqiy inqiroz, zo'ravonlik, befarqlik, jaholat kabi illatlar kuchayadi. Shuning uchun bugungi kunda oila institutini inqirozdan saqlash, uni mustahkamlash orqali ma'naviy tarbiyani yuksaltirish zarur. Bu esa davlat, jamiyat, ta'lim tizimi va eng avvalo, har bir ota-onaning dolzarb vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston – xalqimiz orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan ulug' maqsaddir”. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Ma'naviyat asoslari. Darslik. – Tahrir hay'ati: Q. Nazarov, A. Jo'rayev va boshq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020.
3. Tojiboyev A. “Oila va ma'naviyat: Tarbiyaviy asoslar”. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Qodirov M., Karimov N. “Tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari”. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Sharipova D. “Oila va jamiyat: tarbiya muammolari”. // “Ijtimoiy fanlar” jurnali, 2021, №3.
6. CyberLeninka, Ziyonet, Google Scholar kabi ilmiy ma'lumot bazalaridan olingan maqolalar va tadqiqotlar.